

UO‘K(UDC, УДК): 81.37:82

BADIIY MATNDA “BOLALIK” KONSEPTINING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI²⁰

Asadova Gulnoza Yodgor qizi

Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Sirdaryo, O‘zbekiston

E-mail: soibnazarovagulnoza@gmail.com

ORCID ID: 0009-0001-9782-2240

Solijonov Muhammadjon Zokirjon o‘g‘li

Qo‘qon davlat universiteti dotsenti,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Farg‘ona, O‘zbekiston

E-mail: solijonovmuhammadjon@gmail.com

ORCID ID:0000-0002-5053-6079

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada badiiy matnda “bolalik” konseptining kognitiv-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi “bolalik” konseptining badiiy diskursda qanday konseptual tahlil qilinishini, uning yadro va periferik semantik qatlamlarini hamda emotsional-baholovchi komponentlarini aniqlashdan iborat. Material sifatida o‘zbek, rus va ingliz adabiyotidan tanlangan badiiy matn parchalaridan foydalanildi. Metodologik asos kognitiv lingvistika va kognitiv poetika tamoyillariga tayangan holda kognitiv-semantik, kontekstual hamda konseptual modellashtirish metodlari bilan ta‘minlandi. Tahlil natijalari “bolalik” konseptining yadro qatlamida beg‘uborlik, o‘yin, xotira va sog‘inch kabi ma‘nolar ustun ekanini, yaqin periferiyada ijtimoiylashuv, oila-muhit, axloqiy shakllanish kabi komponentlar faol ekanini ko‘rsatdi. Uzoq periferiyada esa travma, yo‘qotish, nostalgiya va identifikatsiya jarayonlari bilan bog‘liq assotsiatsiyalar kuchaygani ko‘rinadi. Xulosa sifatida “bolalik” konsepti badiiy tafakkurda madaniy va muallifiy omillar ta‘sirida turlicha modellashtirilishi, metafora va ramzlar orqali ko‘p qatlamli semantik makon hosil qilishi aniqlandi.

KALIT SO‘ZLAR

Bolalik konsepti, kognitiv semantika, badiiy matn, konseptual tahlil, obrazlilik, emotsional baholash, yadro va priferik semantik tahlil, xotira, sog‘inch, travma, nostalgiya.

Received: January 30, 2026

Accepted: February 10, 2026

Available online: May 10, 2026

²⁰ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Asadova G., Solijonov M. Badiiy matnda “bolalik” konseptining kognitiv-semantik tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 2(10) — B. 132-140.

**COGNITIVE-SEMANTIC ANALYSIS OF THE CONCEPT OF
“CHILDHOOD” IN LITERARY TEXTS****Asadova Gulnoza Yodgor qizi***Basic doctoral student of
Gulistan State Pedagogical Institute
Syr Darya, Uzbekistan**E-mail: soibnazarovagulnoza@gmail.com**ORCID ID: 0009-0001-9782-2240***Solijonov Mukhammadjon Zokirjon ogli***Associate Professor of Kokand State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Fergana, Uzbekistan**E-mail: solijonovmukhammadjon@gmail.com**ORCID ID:0000-0002-5053-6079*

ABSTRACT

This paper explores the cognitive-semantic properties of the concept of “childhood” in literary discourse. The study aims to identify how “childhood” is conceptualized in fiction, to describe its core and peripheral semantic zones, and to clarify its evaluative and metaphorical components. The dataset includes selected excerpts from Uzbek, Russian, and English literary texts where childhood is represented through recurring lexical cues, narrative situations, and associative imagery. Methodologically, the research draws on cognitive linguistics and cognitive poetics and applies cognitive-semantic and contextual analysis alongside conceptual modeling. The findings indicate that the core layer is dominated by meanings of innocence, play, memory, and nostalgia, while the near periphery foregrounds family environment, socialization, and moral formation. The far periphery is associated with trauma, loss, and identity-related experiences that reshape the overall conceptual structure. The paper concludes that “childhood” functions as a culturally and authorially mediated concept that builds a multi-layered semantic space and is articulated through metaphors, symbols, and discourse-specific evaluative strategies.

KEY WORDS

Childhood concept, cognitive semantics, literary text, conceptual analysis, imagery, core and peripheral semantic analysis, memory, longing, trauma, nostalgia.

КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «ДЕТСТВО» В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Асадова Гулноза Ёдгор кизи

*Базовый докторант Гулистанского
государственного педагогического института*

Сырдарья, Узбекистан

E-mail: soibnazarovagulnoza@gmail.com

ORCID ID: 0009-0001-9782-2240

Солижонов Мухаммаджон Зокиржон угли

*Доцент Кокандского государственного университета,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам*

Фергана, Узбекистан

E-mail: solijonovmuhammadjon@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-5053-6079

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются когнитивно-семантические особенности концепта «детство» в художественном дискурсе. Цель исследования – выявить способы концептуализации «детства» в литературном тексте, определить ядро и периферию, а также описать эмоционально-оценочный и образно-метафорический компоненты данного концепта. Материалом послужили фрагменты художественных произведений узбекской, русской и английской литературы, в которых репрезентация детства проявляется через лексические маркеры, сюжетные ситуации и ассоциативные образы. Методология опирается на положения когнитивной лингвистики и когнитивной поэтики; в исследовании использованы когнитивно-семантический и контекстуальный анализ, а также метод концептуального моделирования. Результаты показывают, что в ядре концепта доминируют значения невинности, игры, памяти и тоски по прошлому; в ближней периферии актуализируются семейная среда, социализация и нравственное становление личности. В дальней периферии усиливаются ассоциации травматического опыта, утраты и кризиса идентичности. Сделан вывод о том, что «детство» как культурно обусловленный концепт формирует многослойное семантическое пространство и раскрывается в тексте через метафоры, символы и индивидуально-авторскую интерпретацию.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Концепт 'детство', когнитивная семантика, художественный текст, концептуальный анализ, образность, семантический анализ ядра и периферии, память, тоска, травма, ностальгия.

KIRISH

Kognitiv lingvistikaning jadal rivojlanishi tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki inson tafakkuri, idroki va madaniy tajribasining mahsuli sifatida o'rganishga keng imkoniyat yaratdi (Lakoff, Johnson, 2003, 65). Ushbu yondashuv doirasida badiiy matn alohida tadqiqot obyekti sifatida qaralib, unda aks etgan konseptual tuzilmalar orqali muallifning individual dunyoqarashi, shuningdek, muayyan millatga xos tafakkur va qadriyatlar tizimini aniqlash mumkin bo'ldi. Ayniqsa, badiiy matnda faol ishtirok etuvchi konseptlarning tahlili insonning olamni idrok etish jarayoni hamda til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi (Кубрякова, 2004, 76).

Zamonaviy filologik tadqiqotlarda konsept tushunchasi markaziy o'rin egallab, u inson ongida shakllangan bilimlar, tajribalar va emotsional holatlarning umumlashgan mental modeli sifatida talqin etiladi. Badiiy matnda konseptlar muayyan leksik birliklar, obrazlar va metaforalar orqali ifodalanib, matn mazmunining chuqur semantik qatlamlarini ochib berishga xizmat qiladi (Маслова, 2001, 32). Shu bois konseptual tahlil badiiy asar mazmunini faqat yuzaki emas, balki kognitiv va madaniy jihatdan ham anglash imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, badiiy matnda muhim o'rin tutuvchi "bolalik" konsepti alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. "Bolalik" konsepti inson hayotining muhim davrini ifodalash bilan birga, beg'uborlik, xotira, ijtimoiy muhit, tarbiya hamda emotsional tajribalar majmuini o'zida mujassamlashtiradi. Badiiy asarlarda bolalik obrazi ko'pincha shaxs shakllanishi, ma'naviy o'sish yoki travmatik tajribalar bilan bog'liq holda tasvirlanib, muallifning estetik va falsafiy qarashlarini yoritishga xizmat qiladi (Попова, Стернин, 2007, 129).

Demak, badiiy matnda "bolalik" konseptini kognitiv-semantik jihatdan tadqiq etish nafaqat mazkur konseptning semantik tuzilishini aniqlash, balki badiiy tafakkur, milliy mentalitet va individual mualliflik pozitsiyasini ochib berish nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Mazkur masalaning tadqiqi zamonaviy kognitiv lingvistika va badiiy matn tahlili sohasidagi izlanishlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Bolalik" konsepti inson hayotining muhim bosqichini ifodalash bilan birga, beg'uborlik, xotira, ijtimoiy tajriba va emotsional holatlar majmuini o'zida mujassamlashtiradi (Маслова, 2001, 87). Badiiy matnda ushbu konsept turli leksik birliklar, obrazlar va metaforalar orqali ifodalanib, muallifning estetik qarashlari hamda individual badiiy tafakkurini namoyon etadi. Shu bois "bolalik" konseptini kognitiv-semantik jihatdan tadqiq etish badiiy matn mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi badiiy matnda “bolalik” konseptining kognitiv-semantik xususiyatlarini aniqlash va uning konseptual modelini tavsiflashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: konsept tushunchasining nazariy asoslarini yoritish; “bolalik” konseptining yadro va periferik qatlamlarini aniqlash; uning emotsional-baholovchi hamda obrazli-metaforik komponentlarini tahlil qilish.

Kognitiv lingvistika doirasida konsept inson ongida shakllangan bilimlar, tajribalar va madaniy tasavvurlarni umumlashtiruvchi murakkab mental tuzilma sifatida talqin qilinadi (Попова, Стернин, 2007). Bu tushuncha turli ilmiy maktablar tomonidan mental birlik, bilimlar paketi va tajriba modeli sifatida izohlanadi. E.S. Kubryakova konseptni inson ongidagi bilimlarni saqlovchi va qayta ishlovchi birlik sifatida tavsiflaydi (Кубрякова, 2004, 23). Z.D. Popova va I.A. Sternin esa konseptni ko‘p komponentli tuzilma bo‘lib, unda tasavvuriy, tushunchaviy va baholovchi qatlamlar mavjudligini ta’kidlaydi (Попова, Стернин, 2007, 65). Bu yondashuvlar badiiy matnda konsept tahlilini amalga oshirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

V.A. Maslova lingvokulturologik nuqtayi nazardan konseptni madaniyat bilan uzviy bog‘liq mental tuzilma sifatida izohlaydi va badiiy matnda konseptlar milliy qadriyatlar hamda ijtimoiy tajriba bilan chambarchas aloqada namoyon bo‘lishini qayd etadi (Маслова, 2001, 87). Shu sababli “bolalik” konsepti nafaqat yosh davrini, balki madaniy ideal, axloqiy model va emotsional xotira maydoni sifatida ham talqin qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot kognitiv lingvistika doirasida amalga oshirilib, badiiy matni inson tafakkuri va madaniy tajribasining til orqali ifodalanish shakli sifatida o‘rganishga asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, badiiy matnda qo‘llanilgan konseptlar muallifning individual dunyoqarashi, estetik qarashlari hamda muayyan millatga xos tafakkur xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim kognitiv birliklar hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, “bolalik” konsepti badiiy matnda chuqur semantik va emotsional yuklamaga ega bo‘lgan konseptual maydon sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot jarayonida “bolalik” konseptining tuzilishini aniqlash maqsadida kognitiv-semantik tahlil va konseptual modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, mazkur konsept yadro semantik qatlam va periferik qatlamlardan tashkil topishi aniqlanadi. Yadro qatlamda bolalik yoshiga oid asosiy belgilovchi semalar –yosh davri, voyaga yetmaslik, beg‘uborlik va himoyaga muhtojlik kabi tushunchalar mujassam bo‘lsa, periferik qatlamda muallifning

individual tajribasi, ijtimoiy muhit, tarbiya omillari hamda madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq semantik birliklar aks etadi (Болдырев, 2002, 54).

Shuningdek, tadqiqotda kontekstual tahlil metodi orqali “bolalik” konseptining badiiy matndagi funksional xususiyatlari aniqlanib, uning turli kontekstlarda qanday semantik va emotsional ranglarga ega bo‘lishi o‘rganildi. Ushbu yondashuv konseptning statik emas, balki dinamik va kontekstga bog‘liq mental tuzilma ekanini ko‘rsatadi. Badiiy matnda “bolalik” konseptining mazmuni muallif pozitsiyasi va asarning umumiy g‘oyaviy yo‘nalishiga qarab o‘zgarib borishi aniqlanadi.

Umuman olganda, qo‘llanilgan metodlar majmuasi “bolalik” konseptining kognitiv-semantik xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilish, uning badiiy matndagi o‘rni va funksional ahamiyatini aniqlash imkonini berdi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tahlil natijalariga tayangan holda “bolalik” konseptining kognitiv-semantik modeli yadro, yaqin periferik va uzoq periferik qatlamlardan tashkil topishi aniqlanadi. Yadro qatlamga biologik yosh, voyaga yetmaganlik va himoyaga muhtojlik semalari kiradi. Yaqin periferiyada o‘yin, xotira, oila, tarbiya kabi birliklar joylashadi. Uzoq periferiyada esa nostalgiya, travma, idealizatsiya kabi abstrakt-emotsional belgilar mavjud (Болдырев, 2002, 55).

Bolalik konseptining kognitiv-semantik modeli



Made with Napkin

1-rasm. “Bolalik” konseptining semantik qatlamlari modeli (kognitiv semantika tamoyillari asosida tuzildi).

NATIJAR VA ULARNING TAHLILI

“Bolalik” konseptining muhim tarkibiy qismi uning emotsional-baholovchi komponentidir. Badiiy matnlarda bolalik ko‘pincha quvonch, sog‘inch va beg‘uborlik kabi ijobiy emotsiyalar bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Shu bilan birga, ayrim asarlarda bolalik travmatik tajriba, ijtimoiy adolatsizlik yoki erta voyaga yetish jarayoni bilan uzviy bog‘lanib, salbiy semantik yuklama kasb etadi (Evans, Green, 2006, 12). Bu holat “bolalik” konseptining ko‘p qirrali tabiatini namoyon etadi.


Ingliz adabiyotida “bolalik” konsepti ko‘pincha xotira va shaxsiy shakllanish jarayoni bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Jumladan, J. Irving asarlarida bolalik inson hayotidagi murakkab va ziddiyatli bosqich sifatida tasvirlanib, shaxs psixologik rivojlanishining muhim manbai sifatida talqin etiladi (Irving, 1989, 43). Ch. Dikens asarlarida esa bolalik ijtimoiy tengsizlik va axloqiy muammolar fonida ochib berilib, ushbu konsept keng ijtimoiy-ma’naviy mazmun kasb etadi (Dickens, 2003, 76).

Rus adabiyotida “bolalik” konsepti axloqiy shakllanish va ma’naviy poklik bilan bog‘liq holda ifodalanadi. L.N. Tolstoyning “Детство” asarida bolalik inson qalbining eng sof davri sifatida tasvirlanib, shaxsiy xotira va axloqiy o‘zini anglash bilan uyg‘unlashadi (Толстой, 1984, 54). M. Gorkiy asarlarida esa bolalik qiyinchilik va ijtimoiy sinovlar bilan bog‘liq holda tasvirlanib, salbiy emotsional semantika kasb etadi (Горький, 2008, 19). O‘zbek adabiyotida esa Erkin A’zam ijodida bolalik konsepti ko‘proq ijtimoiy-madaniy muhit, mahalla, oila va tarbiya konteksti bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Adibning "Kechikayotgan odam" qissasi va boshqa asarlarida qahramonlarning bolalik xotiralari ko‘pincha milliy mentalitet, qadriyat va axloqiy me’yorlar bilan uyg‘unlashgan holda beriladi (АЪЗАМ, 2006, 43).

Erkin A’zam badiiy matnlarida bolalik ko‘pincha sodda idrok, ichki halollik va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanuvchi xarakter modeli bilan bog‘lanadi. Natijada “bolalik” konsepti milliy-madaniy konsept sifatida strukturaviy jihatdan kengayadi va periferik semantik zonasi boyiydi. Bu holat konseptning madaniy shartlanganligini tasdiqlaydi (Кубрякова, 2004; Маслова, 2001). Bu holatlar “bolalik” konseptining madaniy va muallifiy talqinga bog‘liq ravishda turlicha konseptualizatsiya qilinishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “bolalik” konsepti badiiy matnda metafora, ramz va assotsiativ obrazlar orqali ifodalanadi. Obrazli-metaforik vositalar bolalikni yorug‘lik, yo‘qolgan orzular yoki xotira timsoli sifatida talqin etishga xizmat qilib, muallifning estetik qarashlarini namoyon etadi (Lakoff, Johnson, 2003; Stockwell, 2002).

Natijada, “bolalik” konsepti badiiy tafakkurda muhim konseptual markazlardan biri sifatida shakllanadi.



2-rasm. Badiiy matnda “bolalik” konsepti metaforik modellari taqsimoti (kognitiv poetika tahlili asosida).

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “bolalik” konsepti badiiy matnda ko‘p qatlamli kognitiv-semantik tuzilishga ega bo‘lib, u yadro va periferik qatlamlar, emotsional-baholovchi hamda obrazli-metaforik komponentlar orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu konsept muallifning individual badiiy tafakkuri va madaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim kognitiv birlik sifatida namoyon bo‘ladi. O‘rganilgan materiallar asosida “bolalik” konseptining kognitiv modeli aniqlanib, uning badiiy matndagi funksional xususiyatlari yoritildi. Xususan, “bolalik” konsepti yadro qatlamida biologik yosh va voyaga yetmaganlik semalari, yaqin periferiyada oila va tarbiya, uzoq periferiyada esa nostalgiya va idealizatsiya kabi abstrakt-emotsional belgilar joylashishi aniqlandi. Shuningdek, turli milliy adabiyotlarda (ingliz, rus, o‘zbek) “bolalik” konseptining o‘ziga xos madaniy va individual-mualliflik talqinlari mavjudligi ochib berildi. O‘zbek adabiyotida Erkin A‘zam ijodi misolida bolalik konseptining milliy-madaniy xususiyatlari, jumladan, oila, mahalla va an‘anaviy tarbiya qadriyatlari bilan bog‘liq jihatlari namoyon

bo‘ldi. Tadqiqot natijalari kelgusida konseptual tahlil va badiiy diskurs tadqiqotlari uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors we live by*. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – 276 p.
2. Кубрякова Е.С. *Язык и знание: На пути получения знаний о языке*. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
3. Маслова В.А. *Лингвокультурология*. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
4. Попова З.Д., Стернин И.А. *Когнитивная лингвистика*. – Москва: АСТ, 2007. – 314 с.
5. Болдырев Н.Н. *Когнитивная семантика*. – Тамбов: Издательство Тамбовского государственного университета, 2002. – 123 с.
6. Evans V., Green M. *Cognitive Linguistics: An Introduction*. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – 830 p.
7. Irving J. *A Prayer for Owen Meany*. – New York: William Morrow, 1989. – 637 p.
8. Dickens Ch. *David Copperfield*. – London: Penguin Classics, 2003. – 882 p.
9. Толстой Л.Н. *Детство*. – Москва: Художественная литература, 1984. – 191 с.
10. Горький М. *Детство*. – Москва: АСТ, 2008. – 288 с.
11. Stockwell P. *Cognitive Poetics: An Introduction*. – London: Routledge, 2002. – 193 p.
12. Аъзам Э. *Кечикаётган одам*. – Тошкент: Шарқ, 2006. – 256 б.

REFERENCE:

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
2. Kubryakova, E. S. (2004). *Yazyk i znanie. Yazyki slavyanskoy kultury*.
3. Maslova, V. A. (2001). *Lingvokulturologiya. Akademiya*.
4. Popova, Z. D., & Sternin, I. A. (2007). *Kognitivnaya lingvistika. AST*.
5. Boldyrev, N. N. (2002). *Kognitivnaya semantika. Tambov University Press*.
6. Evans, V., & Green, M. (2006). *Cognitive linguistics: An introduction. Edinburgh University Press*.
7. Irving, J. (1989). *A Prayer for Owen Meany. William Morrow*.
8. Dickens, C. (2003). *David Copperfield. Penguin Classics*.
9. Tolstoy, L. (1984). *Detstvo. Khudozhestvennaya literatura*.
10. Gorky, M. (2008). *Detstvo. AST*.
11. Stockwell, P. (2002). *Cognitive poetics: An introduction. Routledge*.
12. Azam, E. (2006). *Kechikayotgan odam [The latecomer]. Tashkent: Sharq*.